

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09. 2020.Tib.123.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

XAYDAROVA DILRABO DAVRONOVNA

**O'PKANING SURUNKALI OBSTRUKTIV KASALLIGI FONIDA
COVID-19 (SARS-COV-2) ZOTILJAMINING KECHISHI
XUSUSIYATLARI**

14.00.05 – Ichki kasalliklar

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Xaydarova Dilrabo Davronovna

О‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligi fonida COVID-19 (SARS-CoV-2) zotiljaming kechishi xususiyatlari..... 3

Хайдарова Дилрабо Давроновна

Клинико-иммунологические проявления SARS-CoV-2 пневмонии на фоне хронической обструктивной болезни легких 21

Haydarova Dilrabo Davronovna

Clinical and immunological features of SARS-CoV-2 pneumonia against the background of chronic obstructive pulmonary disease..... 41

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09. 2020.Tib.123.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

XAYDAROVA DILRABO DAVRONOVNA

**O'PKANING SURUNKALI OBSTRUKTIV KASALLIGI FONIDA
COVID-19 (SARS-COV-2) ZOTILJAMINING KECHISHI
XUSUSIYATLARI**

14.00.05 – Ichki kasalliklar

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4. PhD/Tib1507-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samrqand Davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.urgfiltma.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Tashkenbayeva Eleonora Negmatovna**
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Axmedova Nilufar Sharipovna**
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Ziyadullayev Shuxrat Xudoyberdiyevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.09.2020.Tib.123.01 raqamli ilmiy kengashining 2024 yil “_____” _____ soat “_____” dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Xorazm viloyati, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko‘chasi, 28. Tel./faks (+99862) 224-84-84, e-mail: ttaurgfil@umail.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____-raqam bilan ro‘yxatga olingan) Manzil: 220100, Xorazm viloyati, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko‘chasi, 28. Tel./faks (+99862) 224-84-84, e-mail: ttaurgfil@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.Y.Ruzibayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

Z.F.Djumaniyazova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

R.B.Abdullayev
Ilmiy unvonlar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. O‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligi (O‘SOK) bugungi kunda Sog‘liqni Saqlash sohasida dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘SOK JSSTning yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning (YBK) oldini olish va nazorat qilish bo‘yicha Global Harakatlar Rejasida o‘z aksini topgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BTM) kun tartibidagi global maqsadlardan biri YBKlardan erta o‘limni 25%ga kamaytirishdir.¹

Yangi koronavirus infeksiyasining paydo bo‘lishi, ayniqsa, pandemiyadan, shu jumladan pastki nafas yo‘llari infeksiyasidan o‘limning ko‘payishiga hissa qo‘shganligi sababli tashvish uyg‘otadi. Taxminan 80% bemorlarning SARS-CoV-2 yengil shakli bo‘lsa-da, kasallik jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Yangi koronavirus infeksiyasi, ayniqsa, uning og‘ir kechishi, ya‘ni shifoxonadan tashqarida orttirilgan og‘ir zotiljam rivojlanishi uchun bir yoki bir nechta xavf omillari odamlar uchun xavflidir. Butun dunyoda COVID-19 ning genetik asoslarini o‘rganishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yangi koronavirus kasalligi (COVID-19) global sog‘liqni saqlash muammosini keltirib chiqaradi. Kasallik boshlanganidan beri tasdiqlangan holatlar soni 704 milliondan oshdi, butun dunyo bo‘ylab 7 milliondan ortiq kishi vafot etdi.² Kasallik tarqalishining oldini olishga qaratilgan sog‘liqni saqlash choralari tufayli bir qator mamlakatlar intensiv terapiya bo‘limlarining yetishmovchiligiga duch kelishmoqda. Hozirda SARS-CoV-2 ning etiologik omili bo‘lgan SARS-CoV-2 koronavirusining nukleotidlar ketma-ketligini aniqlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Minglab virus genomlarining global ketma-ketligi SARS-CoV-2 evolyutsiyasini kuzatish va uning vaqt o‘tishi bilan tarqalishini kuzatish imkonini beruvchi ko‘plab umumiy genetik variantlarni aniqladi. SARS-CoV-2 ning zamonaviy evolyutsiyasini tushunish nafaqat yangi koronavirus infeksiyasi tarqalishini retrospektiv tahlil qilish, balki SARS-CoV-2 ni davolash va oldini olishga yondashuvlarni ishlab chiqish uchun ham zarur.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning zamonaviy jihatlari nafas yo‘llari kasalliklari va ular bilan bog‘liq patologik holatlarga chalingan bemorlarni reanimatsiyaning ilg‘or texnologiyalarini joriy etish orqali davolash natijalarini yaxshilashga qaratilgan ko‘plab tadbirlarni o‘z ichiga oladi. 2022-2026-yillarda yangi O‘zbekistonni yetti ustuvor yo‘nalish bo‘yicha rivojlantirish strategiyasida aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish vazifalari belgilangan³.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli PF qarorlarida belgilangan vazifalarga ma‘lum darajada mos keladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash

¹ [https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/chronic-obstructive-pulmonary-disease-\(copd\)](https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/chronic-obstructive-pulmonary-disease-(copd))

² <https://index.minfin.com.ua/reference/coronavirus/geography/>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5590-son PF qarorlari; 2019-yil 3-fevraldagi 4191-sonli "Ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologik yordam tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori; 2020-yil 26-martdagi 4649-sonli "O'zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi⁴ qarori va bu borada qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlar muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Ushbu ma'lumotlar shaxsiylashtirilgan terapiyaga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljaming shakllanishi va rivojlanishidagi turli patogenetik bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga qaratilgan tegishli dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Ushbu tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning VI ustuvor yo'nalishlari – "Tibbiyot va farmakologiya" yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi.

Bugungi kunga qadar dunyo bo'ylab olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, COVID-19 2020 yilda yurak xastaligi va saraton kasalligidan keyin o'limning uchinchi bosh sababchisi bo'lib, 3 milliondan ortiq odam halok bo'lgan. Koronavirus pandemiyasi dunyoda COVID-19 ning etiopatogenezi, klinik, immunologik va genetik ko'rinishlari sohasida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilishiga turtki bo'ldi. Stokes va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tahlilga ko'ra, kasalxonaga yotqizishni talab qiladigan COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning ulushi oldin kasalliklari mavjud bo'lgan bemorlarda, oldin kasalliklari bo'lmagan bemorlarga qaraganda 6 baravar yuqori (45,4% va 7,6%), Tadqiqotda shuningdek, kasallikdan vafot etgan bemorlarning ulushi oldin kasalliklari mavjud bo'lgan bemorlarda oldin kasalligi bo'lmagan bemorlarga qaraganda 12 baravar yuqoriligini (19,5% va 1,6%) ko'rsatdi.

Genetik moyillik va yallig'lanish sitokinlari O'RDS bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. 40 dan ortiq genlar, ayniqsa ACE2, IL10, TNF va VEGF O RDS rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.⁵ Qonda interleykin-6 (IL-6) IL-8 darajasining oshishi O'RDSda yomon oqibatlariga olib kelishi bilan bog'liqligi isbotlangan.⁶

60 ta adabiyot manbalari COVID-19 va surunkali obstruktiv o'pka kasalligi (O'SOK)ning komorbidligi bilan bog'liq asosiy jihatlariga bag'ishlangan. Unda O'SOK bilan kasallangan bemorlar o'pkasida angiotensin aylantiruvchi ferment 2 retseptorining miqdorining oshishi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu esa ko'proq COVID-19 ga moyillikka olib kelishi mumkin. O'SOKda endotelial hujayra disfunksiyasi va trom hosil bo'lishiga moyillik aniqlangan, bu esa COVID-19 da

⁴ "O'zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 26-martdagi 4649-son PF

⁵ Meyer N.J., Christie J.D. Genetic heterogeneity and risk of acute respiratory distress syndrome. *Semin. Respir. Crit. Care Med.* 2013; 34 (4): 459–474. DOI: 10.1055/s-0033-1351121

⁶ Thompson B.T., Chambers R.C., Liu K.D. Acute respiratory distress syndrome. *N. Engl. J. Med.* 2017; 377 (6): 562–572. DOI: 10.1056/NEJMra1608077

salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. O‘SOK bilan og‘rigan bemorlarning SARS-CoV-2 infeksiyasiga ko‘proq moyil ekanligini kogort ma‘lumotlari tasdiqlamaydi, ammo ularda COVID-19ning klinik ko‘rinishlari yomonroq kechib, ko‘pincha o‘pkaning sunniy ventilyatsiyasi va o‘limga olib keladi.⁷

So‘nggi yillarda Respublikamizda SARS-CoV-2 bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda. O‘zbekistonda keyingi yillarda Respublikaning yetakchi mutaxassislari A.L. Alyavi, U.K. Kamilova, I.V. Liverko, A.G. Gadayev, E.N. Tashkenbayeva kabi yetakchi mutaxassislar faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu ishlar keksa odamlarda va turli kasalliklarga chalingan bemorlarda kasallik yanada og‘irroq kechishi va o‘limga olib keladigan COVID-19 ni o‘rganishga bag‘ishlangan. Ular orasida surunkali kasalliklar tufayli uning komorbid rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda, biroq COVID-19 ning turli o‘pka kasalliklariga, shu jumladan surunkali obstruktiv o‘pka kasalliklariga ta‘siri haqida yakuniy xulosalar hali chiqarilmagan.

Dissertatsiya mavzusi va dissertatsiya tugallangan ilmiy-tadqiqot muassasasining tadqiqot rejalari o‘rtasidagi bog‘liqlik. Dissertatsiya ishi mavzusi tadqiqot rejasiga muvofiq Samarqand davlat tibbiyot universiteti va V.I Razumovskiy nomidagi Saratov davlat tibbiyot universitetining INTL-SARGMU-SAMGMI-2021-03 “Klinik-laborator, ruhiy-ijtimoiy omillarni o‘rganish va axborot texnologiyalari ma‘lumotlaridan foydalanish asosida bemorlarda shu jumladan, COVID-19 bilan kasalangan bemorlarday urak-qon tomir kasalliklarining rivojlanish oqibati va maxsuslashtirilgan terapiyasi” xalqaro grantiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqot maqsadi: O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarning klinik, immunologik va molekulyar genetik xususiyatlarini aniqlash, erta tashxislash va asoratlarni oldini olishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

O‘SOK fonida SARS-CoV-2 qo‘zg‘atuvchi zotiljami bo‘lgan bemorlarda kasallikning klinik kechish xususiyatlarini o‘rganish;

O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bo‘lgan bemorlar va alohida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda laborator–instrumental xususiyatlarini va o‘pka to‘qimasining zararlanishini aniqlash;

O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlar va alohida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlar o‘rtasida immunologik ko‘rsatkichlarni solishtirish;

O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bo‘lgan bemorlar va alohida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda IL-6 genining C174G polimorfizmi, TNF- α genining G468A polimorfizmi va IL-4 genining C589T genotiplari va allellarining chastota taqsimotini tahlil qilish;

SARS-COV-2 qo‘zg‘atuvchi zotiljami, o‘pka surunkali obstruktiv kasalligi va ularning kombinatsiyasini erta va qiyosiy tashxislash uchun CAT so‘rovnomasidan foydalanish.

⁷ Ovsyannikov E. S., Avdeev S. N., Budnevskiy A. V., Drobysheva E. S., Kravchenko A. Y. COVID-19 va surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi: noma‘lum haqida ma‘lum / Tuberkulyoz va o‘pka kasalliklari. – 2021. – T. 99, No 2. – S. 6-15. <http://doi.org/10.21292/2075-1230-2021-99-2-6-15>

Tadqiqot obyekti sifatida 2020 va 2022 yillarda Samarqand shahri ixtisoslashtirilgan COVID-19 ga qarshi kurash markaz bo'limida kasalxonada davolangan COVID-19 bilan kasallangan har xil og'irlik darajasidagi 190 nafar bemorlar, shu jumladan 96 nafar O'SOK fonida SARS-CoV-2 qo'zg'atuvchi zotiljami bo'lgan bemorlar va 94 nafar alohida O'SOK siz SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlar olindi. Nazorat guruhini 60 nafar sog'lom odamlar tekshirildi.

Tadqiqot predmeti SARS-COV-2 qo'zg'atuvchi zotiljami bo'lgan bemorlarda, hamda uchbu patologiyaning O'SOK bilan qo'shib kelgan bemorlarning klinik, laborator, biokimyoviy, immunologik va molekulyar genetik tekshirish uchun venoz qoni va qon zardobi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada klinik, immunologik, molekulyar genetik, instrumental va statistik kabi analitik usullardan foydalanildi.

Ilmiy yangilik.

Ilk bor SARS-COV-2 qo'zg'atgan zotiljaming O'SOK patologiyasi bilan qo'shib kelishi alohida SARS-COV-2 qo'zg'atgan zotiljami bo'lgan bemorlarda qaraganda kasallikning og'ir kechishi va uzoq muddatli davolanishni talab qilishi isbotlangan;

O'SOK fonida SARS-COV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda limfotsitar bog'lanishning adekvat javobidan dalolat beruvchi, kasallikning og'irligini baholashda qo'shimcha mezon bo'luvchi limfotsitlar miqdorining nisbiy kamayishga moyilligi, periferik qondagi umumiy oqsil va albumin miqdori me'yordan past ekanligi, hamda MSKT da "xira shisha" simptomi aniqlangan;

O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda immunologik reaktivlikning o'ziga xos xususiyati IL-6 darajasi, ayniqsa, komorbid patologiyasi bo'lgan bemorlarda alohida SARS-CoV-2 zotiljami ($76,8 \pm 14,6$ pg/ml) ($P \geq 0,001$) bilan kasallangan bemorlardan farqli o'laroq yuqori bo'lib, $102,8 \pm 17,8$ pg/ml ni tashkil etgan;

O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan og'irgan bemorlarda IL-4 genining (C589T) geterozigotali CT genotipi va gomozigotali TT genotipining ($P \geq 0,001$) uchrashining past chastotasi TNF- α genining G468A polimorfizmining A alleli sog'lom odamlarga qaraganda ko'p uchrashi isbotlangan;

O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan og'irgan bemorlar orasida O'SOK rivojlanishida va avj olishida minor G allelini muhimligini ko'rsatuvchi IL-6 genining C174G polimorf variantlarining gomozigotli GG va geterozigotali GA ni tashishuvchanligining yuqori chastotasi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: immunitetning zaiflashishi va CAT shkalasi bo'yicha bemorlarning hayot sifatining pasayishi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik, bu immunitet muvozanatining nafaqat o'pkaning zararlanish darajasi bilan, balki hayot sifati ko'rsatkichlari bilan ham bog'liqligini ko'rsatgan;

Turli og'irlikdagi O'SOK fonida SARS-COV-2 zotiljami bilan og'irgan bemorlarda immun javobning har tomonlama o'rganish immun reaktivligining kombinatsiyalangan buzilishlari, shu jumladan hujayra himoya mexanizmlarining yetarli emasligi, og'ir zotiljam bilan og'irgan bemorlarda sitokinlarning yaqqol

faollashuvi, o'pka to'qimalariga katta hajmdagi zararlanish fonida adekvat gumoral immun javob mavjudligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llaniladigan nazariy yondashuv va usullarning to'g'riligi, bemorlar sonining yetarliligi, olingan natijalarni xorijiy tadqiqotlar bilan taqqoslash, olingan natijalar va xulosalarning dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari bilan asoslanishi, shuningdek ularning qonuniy organlar tomonidan tasdiqlanishi, zamonaviy statistik usullardan foydalangan holda raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, O'SOK fonida SARS-COV-2 qo'zg'atuvchi zotiljami bilan og'riqan bemorlarda IL-4 genining (C589T) geterozigotli CT genotipi va gomozigotali TT genotipining sezilarli darajada kam uchrashi, TNF-a geni G468A polimorfizmining A alleli va IL-6 geni C174G polimorfizmining G allelining yuqori darajada uchrashi, komorbid patologiyaning rivojlanishi va progressivlanishida ushbu allellarning muhimligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, CAT so'rovnomasidan foydalanish O'SOK kasallikning og'irlik darajasi va hayot sifatiga ta'sirini o'z vaqtida baholashga yordam berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi.

O'pka surunkali obstruktiv kasalligi fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda genetik va klinik-biokimyoviy xususiyatlarini aniqlash uchun olingan natijalar asosida:

“O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi fonida SARS-CoV-2 zotiljami tashxislashini takomillashtirish” (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 18.08.2022y №8 H-p/869 ma'lumotnomasi); **“SARS-CoV-2 zotiljami tashxisining klinik va immunologik xususiyatlari”** (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 18.08.2022y №8 H-p/870 ma'lumotnomasi) kabi uslubiy tavsiyanomalari tasdiqlangan. Ushbu tavsiyanomalar, SARS-COV-2 zotiljami bo'lgan bemorlarda qimmatli genetik usullar mavjud bo'lmaganda, sitokin muvozanatini erta baholash orqali o'pka surunkali obstruktiv kasalligi rivojlanishini oldini olishi mumkin.

Davolanishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan usullarning ilmiy natijalari sog'liqni saqlash amaliyotida, jumladan, Oqdaryo tumani tibbiyot birlashmasi va Ishtixon tumani tibbiyot birlashmasida qo'llanilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2024 yil “22” oktabrdagi 7-sonli yig'ilish bayonnomasiga asosan Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotga tatbig'i bo'yicha xulosa olingan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish. Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, ikkita uslubiy tavsiyanoma 9 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalari (PhD) chop etilishi uchun tavsiya etilgan jurnallarda maqola, jumladan, 8 tasi respublika jurnallarida va 1 ta Scopus bazasida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 bet.

DISSERTASINING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslantirilgan, tadqiqot ob‘ekti va predmetining tavsifi berilgan, dissertatsiya ishining O‘zbekiston Respublikasi fan va yangi texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati va amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi "Tibbiyotda yangi SARS-CoV-2 koronavirus infeksiyasi muammolari" bobida to‘rtta kichik bo‘limdan iborat adabiyotlar sharhi taqdim etilgan bo‘lib, unda SARS-CoV-2 zotiljaming zamonaviy tushunchalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan, SARS-CoV-2 zotiljaming rivojlanishining turli etiopatogenetik omillari, shuningdek davolashning zamonaviy jihatlari keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi "**O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami o‘tkazgan bemorlarning klinik va biokimyoviy xususiyatlari**" nomli bobida klinik, laboratoriya va funksional tadqiqot usullarini o‘tkazish texnikasi batafsil tavsiflangan, tekshirilgan bemorlarning umumiy tavsifi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotga O‘SOK fonida SARS-Cov-2 qo‘zg‘atuvchi zotiljam bilan kasallangan 96 nafar va O‘SOK siz SARS-Cov-2 zotiljami bilan kasallangan 94 nafar bemor kiritilgan. Nazorat guruhi 60 nafar nisbattan sog‘lom xoxlovchilar tashkil etdi. Ushbu bemorlarga klinik, funksional, biokimyoviy, immun va genetik tadqiqotlar o‘tkazildi. Tekshiriluvchilarning o‘rtacha yoshi $61,8 \pm 1,2$ yoshni tashkil etdi.

Kuzatuv davomiyligi 4-5 haftani tashkil etdi. Barcha klinik, funksional, laborator, genetik va immunologik ma‘lumotlar O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan va alohida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlar o‘rtasida qiyosiy jihatdan baholandi.

Bemorlarning hayot sifatini baholash uchun O‘SOK CAT klinik so‘rovnomasidan foydalangan. Bemor ushbu so‘rovnomaning oxirgi 7 kun ichida umumiy holatiga qarab to‘ldiradi. Anketa nafas yetishmovchiligi belgilarini va O‘SOKning og‘irlik darajasini aniqlash uchun mo‘ljallangan, so‘rovnoma jami o‘nta savoldan iborat.


O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan va izolyastiyalangan SARS-CoV-2 zotiljamida immunitet holatining rolini o‘rganish uchun IgM va IgG, shuningdek qon zardobidagi yallig‘lanishga qarshi sitokinlar fermentga bog‘liq immunosorbent tahlili (Elisa) usuli bilan amalga oshirildi. **Genetik tadqiqotlar** O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Respublika ilmiy-amaliy tibbiyot gematologiya markazining molekulyar genetika laboratoriyasida, test sinov tizimlari to‘plamidan foydalangan holda polimeraza zanjiri reaksiyasi (PCR)

usulida o‘tkazildi. Tadqiqotning bevosita natijalari klinik muvaffaqiyatni baholash orqali tahlil qilindi. Kasallikning og‘irligi va natijasi modellarini yaratishda, eng kichik kvadratlar usuli yordamida, ularning samaradorligi sharti t-mezoniga ko‘ra $p < 0,05$ darajasidan past bo‘lmagan model parametrlariga qo‘yildi. Ma’lumotlarni saqlash va dastlabki ishlov berish Microsoft Excel 2010 ma’lumotlar bazasida Statistika 10 dasturi yordamida amalga oshirildi.

Ma’lumotlar quyidagicha ifodalangan: o‘rtacha (M) \pm standart og‘ish (m). Taqsimot turiga qarab doimiy qiymatlar orasidagi farqning statistik ahamiyatini aniqlash uchun t-styudent (me’yoriy taqsimot) va Kolmogorov-Smirnov, (normativ bo‘lmagan taqsimot) U- mezonining Mann-Uitni mezonlari ishlatilgan.

Ma’lumotlar quyidagi shaklda ifodalangan: Hardi-Vaynberg ekvivalent taqsimotining nazariy jihatdan kutilgan genotip chastotasining empirik taqsimotga muvofiqligi χ^2 mezoni yordamida baholandi. Farqlarning statistik ishonchligi uchun $p < 0,05$ qabul qilindi.

Uchinchi, "**Tadqiqotimiz natijalari**" bobi 3 ta kichik bo‘limdan iborat. "**O‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligi bilan og‘rigan bemorlarda SARS-CoV-2 virusining klinik xususiyatlari**" kichik bo‘limida O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami va alohida SARS-CoV-2 zotiljami bilan og‘rigan bemorlarni klinik o‘rganish natijalari batafsil bayon etilgan.



1-rasm. O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami va SARS-CoV-2 zotiljami bilan og‘rigan bemorlarda komorbid kasalliklar va xavf omillari

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o‘pka fibrozi, surunkali yurak kasalliklari, gipertoniya kasalligi kabi komorbid kasalliklar va chekish, ekzogen omillar kabi xavfli odatlar tarqalishi tahlili o‘tkazildi.

Klinik tahlil shuni ko'rsatdiki, birinchi guruh bemorlari orasida balg'amli yo'tal bemorlarning 86.5% da, ikkinchi guruh bemorlarida esa balg'amsiz yo'tal 77.6% (P=0.001) kuzatildi. O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan og'rikan bemorlarda shilliq-yiring balg'amli yo'tal bemorlarning 57.8%da, SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda esa 64.3% da shilliq balg'am aniqlangan. Nafas qisilishi belgilarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, qo'shma patologiyasi bo'lgan bemorlar orasida tez-tez (92.7%) ekspirator nafas qisilishi belgilari aniqlangan (P<0.001). O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan og'rikan bemorlarda febril harorat 51% da, alohida SARS-CoV-2 zotiljami bilan og'rikan bemorlarda esa 90,4% da subfebril harorat kuzatildi (P=<0.001).

Shunday qilib, bizning klinik tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljaming komorbid patologiyasi bo'lgan bemorlarda asosiy kasallikning kechishi og'irroq bo'lib, uzoq davolanishni talab qiladi va shifoxonada davolanishning o'rtacha davomiyligi 10±2,1 kuni tashkil etdi. COVID-19 da esa izolyatsiya qilingan davolash usulining o'rtacha davomiyligi 8,6±1,7 kuni tashkil qiladi.

1-jadval

Tadqiqot o'tkazilayotgan guruhlarining klinik tasnifi


Simptomlar		I guruh, n=96	II guruh, n=94	P-value
		abs. %	abs. %	
Yotal	Balg'amsiz	13 (13,6%)	73 (77,7%)	0,001
	Balg'amli	83 (86,5%)	14 (14,9%)	0,001
	Yo'q	-	7 (7,4%)	0,02
Balg'am	shilliq	16 (19,3%)	9 (64,3%)	<0,001
	shilliq - yiringli	48 (57,8%)	4 (28,6%)	0,104
	yiringli	19 (22,9%)	1 (7,1%)	<0,001
	Qon tupurush	5 (5,2%)	2 (2,1%)	0,260
Hansirash	Bor	89 (92,7%)	68 (72,3%)	<0,001
	Yo'q	7 (7,3%)	26 (27,7%)	<0,001
Qaltirash	Bor	52 (54,2%)	76 (80,9%)	<0,001
	Yo'q	44 (45,8%)	18 (19,1%)	<0,001
t°C oshishi	Subfebril	47 (49%)	85 (90,4%)	<0,001
	Febril	49 (51%)	9 (9,6%)	<0,001
Auskultativ belgilar	Vezikulyar nafasning susayishi	96 (100%)	92 (97,9%)	0.485
	Quruq xirillashlar	82 (85,4%)	2 (2,13%)	0.021
	Nam xirillashlar	68 (70,8%)	76 (80,8%)	0.095
	Krepitasiya	28 (29,2%)	18 (19,1%)	0.039
Sp O ₂		79,07±4,98	84,93±2,96	<0.001

“O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi bo'lgan bemorlarda COVID-19 virusining laborator xususiyatlari” nomli ikkinchi kichik bo'limda SARS-CoV-2 zotiljami bilan og'rikan bemorlarda qonning biokimyoviy ko'rsatkichlari norma chegarada yoki normaning pastki chegarasiga yaqin edi. O'SOK fonida SARS-CoV-

2 zotiljami holatida biokimyoviy ko'rsatkichlarning yaqqol o'zgarishlari e'tibor bilan ko'rib chiqishni talab qiladi. Ayniqsa, umumiy oqsil, albumin periferik qonda normal chegaralarda bo'lib, SARS-CoV-2 zotiljami ko'rsatkichlardan statistik jihatdan sezilarli darajada farq qiladi. Og'ir O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan og'riqan bemorlarda fibrinogen D-dimer va ferritin darajasi sezilarli darajada yuqori edi. Bemorlarning ikkala guruhidagi protrombin indeksi normal qiymatlardan sezilarli darajada farq qilmadi ($p \geq 0,05$).

Kuzatilgan immunologik reaktivlik birinchi guruhdagi (O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami) limfotsitlarning nisbiy sonining pasayish tendentsiyasini ko'rsatadi, bu komorbid holatlari bo'lgan bemorlarda limfositlar darajasining adekvat javobini ko'rsatadi. Ushbu tendentsiya taniqli parametrlar bilan birga kasallikning og'irligini baholashda qo'shimcha mezon bo'lishi mumkin.

Uchinchi kichik bo'lim "**O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bo'lgan va alohida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda instrumental tekshirish natijalari**". Ushbu kichik bo'limda O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan va alohida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarning ko'pchiligida multispiralli kompyuter tomografiyasi (MSKT) yordamida patologik jarayonning lokalizatsiyasi o'rganildi. MSKT natijalari shuni ko'rsatdiki, ikkala guruhda ham virusli etiologiyali zotiljami ehtimoli birinchi guruhning 45,8 foizida va ikkinchi guruhning 44,7 foizida yuqori bo'lgan. Birinchi guruhdagi bemorlarning 33,3 foizida va ikkinchi guruhning 31,9 foizida diffuz lokalizatsiyasi kuzatilgan va barcha hollarda ular bir xil bo'lgan, birinchi guruh bemorlarining 20,9 foizi va ikkinchi guruhning 23,4 foizida esa har ikki tomonning lokalizatsiyasining o'zgarishlari kuzatildi.



2-rasm. MSKT natijalari asoslanib og'irlik darajasini aniqlash.

Biz o'rgangan guruhlar orasida aniqlangan o'zgarishlar darajasiga qarab MSKT natijalarini tasniflashda, O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan og'riqan bemorlar orasida bemorlarning ko'pchiligida KT-3 va KT-4 o'zgarishlari aniqlandi va mos ravishda 38% va 25,0% ni tashkil etdi. Izolyatsiyalangan SARS-

CoV-2 zotiljami bo‘lgan bemorlar orasida bu raqamlar mos ravishda 24% va 11% ga teng edi (2-rasm).

Biz o‘rgangan bemorlar orasida o‘pka zararlanishining og‘irlik darajasini baholashda asosiy guruhdagi bemorlarning 4% va ikkinchi guruhdagi 29% da yengil daraja ya’ni hajmi 3 sm gacha bo‘lgan va maksimal diametrli uchta mahalliy patologik maydonga ega bo‘lgan “xira oyna” aniqlandi. O‘pka parenximasining 25-50% gacha ba’zi joylarida muzli shisha konsolidatsiyasi va infiltrativ o‘zgarishlar tipidagi 3 dan ortiq zichlashish maydonlari va maksimal diametri 3 sm dan ortiq bo‘lgan muzli shisha, birinchi guruhning 33% va ikkinchi guruhning 36% da qayd etilgan

Taqdim etilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlar orasida zotiljamning og‘ir va o‘rtacha og‘ir belgilari bo‘lgan bemorlar sezilarli darajada ko‘proq ($P \geq 0,001$).

Dissertatsiya ishining to‘rtinchi "**O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljaming rivojlanishida immun javob molekularining roli**" bobi uchta kichik bo‘limdan iborat. "**O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami va alohida SARS-CoV-2 zotiljami rivojlanishida immunitet holati tahlili**" nomli birinchi kichik bobida SARS-CoV-2 zotiljami shakllanishi va O‘SOK bilan qo‘shilib kelgandagi immunologik ko‘rsatkichlari batafsil ko‘rib chiqildi. Biz tomondan IL-6, IgM va IgG kabi immunologik ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Ma’lumotlar kasalxonaga yotqizilganidan keyin birinchi kuni va 10-kunida olindi.

2-jadval.

O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami (I guruh) va SARS-CoV-2 zotiljami (II guruh) bilan kasallangan bemorlarda gumoral immunitet indekslarining dinamikasi

Tekshirilgan bemorlar (n=190) (M±m)		Immunoglobul in M, g/l	Immunoglobul in G, g/l	IL-6, pg/ml
I guruh (n=96)	1-sutka	1,01±0,27	10,87±0,45*	102,8±17,8
	10- sutka	1,12±0,23	14,42±0,57*	54,2±7,7
II guruh (n=94)	1- sutka	0,96±0,08	11,12±1,2	76,8±14,6
	10- sutka	1,07±0,15	11,89±1,38	34,8±6,9
Nazorat guruhi (n=60)		0,14±0,02	4,74±0,82	14,6±2,92

Eslatma: * - nazorat guruhi bilan statistik jihatdan muhim farq ($p < 0,05$)

O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljaming immunologik holati o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun CAT shkalasi bo‘yicha hayot sifatiga qarab, biz yallig‘lanish sitokini IL-6 va immunoglobulinlar IgM, IgGning o‘rtacha ko‘rsatkichlarini o‘rganib chiqdik. CAT testi, ma’lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

Shunday qilib, taqdim etilgan ma’lumotlar immunitetning zaiflashishi va CAT shkalasi bo‘yicha bemorlarning hayot sifatining pasayishi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni ko‘rsatdi, bu immunitetning nomutanosibliqi nafaqat o‘pkaning

shikastlanish darajasi bilan, balki hayot sifati ko'rsatkichlari bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, turli og'irlikdagi O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bo'lgan va alohida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda immunitet reaksiyasining turli qismlarini har tomonlama o'rganish immunitet reaktivligining kombinatsiyalangan buzilishlari, shu jumladan hujayra himoya mexanizmlarining yetarli emasligini, og'ir zotiljam, o'pka to'qimalarining katta hajmdagi zararlanishi (kasallikning o'ninchi kunida ham IL-6 darajasining doimiy o'sishi) bo'lgan bemorlarda aniq sitokin faollashuvi fonida gumoral immun javob adekvat ekanligini ko'rsatdi.

O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljamida aniqlagan immunologik parametrlar dinamikasi, sitokin regulyatsiyasining buzilishi fonida bakterial agentlar keltirib chiqaradigan yaqqol infeksiyaga chalingan bemorlarda Th1 yo'li bo'ylab immun javob faollashishini aytishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, immun reaksiyasining turli xil buzilishlarining patogenezida interleykinlarning dominant rolini tasdiqlaydi.

3-jadval.

CAT test ko'rsatkichlariga qarab, O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami va SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarning immunologik parametrlari

Immunologik ko'rsatkichlar		IgM, г/л 0,4-2,3	IgG, г/л 7-16	IL-6, пг/мл 0-7
Yengil	I guruh (n=96)	0,96±0,05	11,4±1,4	92,4±6,1
	II guruh (n=94)	0,88±0,1	11,8±1,1	82,8±5,2
O'rta og'ir	I guruh (n=96)	1,01±0,3	11,1±1,5	96,0±4,4
	II guruh (n=94)	0,94±0,1	11,4±1,9	94,7±3,8
Og'ir	I guruh (n=96)	1,06±0,2	11,12±1,6	102,4±7,6
	II guruh (n=94)	1,02±0,1	11,16±1,3	98,8±4,1
O'ta og'ir	I guruh (n=96)	1,18±0,2	10,3±1,4	108,1±6,3
	II guruh (n=94)	1,12±0,1	10,8±1,2	104,1±6,1

“O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami rivojlanishida ba'zi nomzod genlar assotsiatsiyasining tahlili” ikkinchi kichik bo'limida TNF- α (468G-A rs1800629), IL-4 (C/T 589, rs1800629), IL-6 (C174G, rs1800795) kabi yallig'lanish va yallig'lanishga qarshi sitogenlarning molekulyar genetik tadqiqotlari batafsil tavsiflangan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi fuqarolarda O'SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami rivojlanishi va progressivlanishida yuqoridagi genlarning polimorf variantlari bog'lanishini aniqlashdan iborat edi.

Biz o'rgangan nomzod genlarning polimorfizmi O'SOK va SARS-CoV-2 zotiljami kabi holatlarning rivojlanishi, shuningdek ularning kombinatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun biz genotip va allel chastotalarining bemorlar guruhlar va sog'lom shaxslar o'rtasida taqsimlanishining qiyosiy tahlilini o'tkazdik.

Tadqiqot 190 nafar bemorni qamrab oldi, ulardan 96 nafar bemorda O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami patologiyasi va 94 nafar bemorda izolyatsiyalangan COVID-19 mavjud edi, nazorat guruhi 60 nafar nisbattan sog‘lom odamlardan iborat edi. Ushbu lokuslar bo‘yicha natijalar 4 va 5-jadvallarda keltirilgan.

4-jadval.

O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda TNF-a (468G-A, rs1800629), IL-4 (C/T 589, rs1800629), IL-6 (C174G, rs1800795) polimorfizmining allel chastotalarini taqsimlash.

Allel	Chastota (%)		χ^2	P-value	OP	Pastki chegarasi 95% SI	Yuqori chegarasi 95% SI
	I guruh (n=96)	Nazorat guruhi (n=60)					
TNF-α (G468A, rs1800629)							
G	59,5	83,3	10,8	<0,001	0,19	0,08	0,46
A	40,5	16,7	5,23	0,022	5,24	2,19	12,54
IL-4(C589T, rs1800629)							
C	44,0	66,7	17,13	0,031	1,018	0,981	1,218
T	56,0	33,3	11,32	0,715	1,541	0,995	1,913
IL-6 (C174G, rs1800795)							
C	36,9	65,5	5,23	0,022	5,24	2,19	12,54
G	63,1	34,5	10,8	<0,001	0,19	0,08	0,46

4-jadval O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bemorlari orasida TNF-a genining G468A polimorfizmining A alleli sog‘lom odamlarga qaraganda 23,8% ko‘proq tarqalganligini ko‘rsatadi. O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan og‘rigan bemorlar guruhida IL-4 geni C589T polimorfizmining T alleli 56,0% ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida T alleli bemorlarning 33,3 foizida topilgan. IL-6 genining C174G polimorfizmini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan og‘rigan bemorlarda C asosiy allelning paydo bo‘lish chastotasi 36,9%, nazorat guruhida - 65,5%, O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljamidagi kichik G alleli nazorat guruhida mos ravishda 63,1% va 34,5% ni tashkil etdi.

Izolyatsiyalangan SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda TNF-a genining 468G-A polimorfizmini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bemorlarning 28,7% A mutant alleliga ega. IL-4 genining T mutant allelining paydo bo‘lishi chastotasi (C/T 589) SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda 39,8% ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu 33,3% shaxslar orasida kuzatilgan. SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda asosiy allel C ning paydo bo‘lish chastotasi 51,9% va kichik allel 48,1% ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida C va G allelining paydo bo‘lish chastotasi mos ravishda 65,5% va 34,5% ni tashkil etdi.

TNF-a genining (468G-A, rs1800629), IL-4 genining (C/T 589, rs1800629), IL-6 (C174G, rs1800795) polimorfik variantlarini O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bemorlarida va sog‘lom odamlarda taqsimlanishida qiziqarli faktlar aniqlandi: O‘SOK fonida SARS-CoV-2 zotiljami bilan kasallangan bemorlarda TNF-a genining (468G-A) mutant gomozigotali AA genotipi paydo bo‘lish

chastotasi 16,7% ni tashkil etdi, bu sog‘lom odamlardan farqli o‘laroq 7,2% ga ortiq, yoki GA geterozigotali genotipining chastotasi nazorat guruhining 33,3% ga yuqori bo‘lgan, bu O‘SOK va uning fonida SARS-CoV-2 zotiljami kabi holatlarning rivojlanishini bashorat qilishi mumkin.

5-jadval.

COVID-19 bilan kasallangan bemorlar va sog‘lom odamlarda TNF- α (468G-A, rs1800629), IL-4 (C/T 589, rs1800629), IL-6 (C174G, rs1800795) polimorfizmining allel chastotalarini taqsimlash

Allel	Chastota (%)		χ^2	P-value	OP	Pastki chegara 95% SI	Yuqori chegara 95% SI
